TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING FAOLLIGI VA MUSTAQILLIGINI SHAKLLANTIRISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNING O'RNI

Tursunova Dilbar Zafarovna
JDPU o'qituvchisi
Tursunovadilbar@gmail.com
Turdiyev Namozbek Baxriddin o'g'li
JDPU o'qituvchi
namozbekturdiyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ta`lim jarayonida o`quvchilarning faolligi va mustaqilligini shakillantirishda grafik organayzerlarning o`rni ochib berilgan.

Kalit so'z va tushunchalar: Davlat ta'lim standarti, Venn diagrammasi, umumiy maktab, oliy ta'lim, nostandart usullar, o'qituvchi, o'quvchi, faolligini va mustaqilligi, boshqaruvchanlik, madaniy dunyoqarash.

Аннотация: В данной статье раскрывается роль графических организаторов в формировании активности и самостоятельности учащихся в учебном процессе.

Ключевые слова и понятия: Государственный образовательный стандарт, общеобразовательная школа, высшее образование, нестандартные методы, учитель, ученик, активность и самостоятельность, управление культурное мировоззрение.

Annotation: This article reveals the role of graphic organizers in shaping the activity and independence of students in the educational process.

Key words and concepts: State educational standard, secondary school, higher education, non-standard methods, teacher, student, activity and independence, management, cultural outlook.

Ma`lumki, ta`limda o`qituvchining boshqaruvchilik xususiyati kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarning boy tajribasini, insoniyatning butun hayoti davomidagi bilim, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik did hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarini egallashni shart qilib qo'yadi.

O'quv jarayonida bularning bari o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarida o'z aksini topadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi, o'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o'quvchilarda dunyoqarash va axloq me'yorlarini xosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarini

shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati o'quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar yaratadi[23].

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytganda, o'qituvchi butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o'quvchilarga mashaqqatlarni yengib o'tishda yordam beradi, hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashhis etadi.O`quvchilarni o`ziga bo`lgan ishonchini oshiradi, hamda mustaqil fikrlashi yanada mustahkamlanib boradi.O`qituvchi kuchli salohiyatli bilimga ega bo`lsa o`quvchilarni dars jarayonida turli metodlardan foydalanib darsiga qiziqtirib ularni shu jarayonga moslashtiradi.Metodlardan foydalanish, o`quvchilardan kam vaqtda samarali natija olishda yordam beradi.

O`z navbatida o`quvchilarning faoliyati ularning faolligi o`quv jarayonida o`rganishga, bilim, ko`nikma va malakalarni xosil qilishga, fan, texnika, san`at, madaniyat asoslarini egallashga, o`zini jamiyatda foydali faoliyatga tayyorlash uchun yo`naltiriladi. Ta'lim jarayonida o'quvchining faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan xarakatni ifodalaydi va bu xarakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga yordam beradi. Bu jixat o'qituvchiga ulkan vazifa yuklaydi: o'qituvchi ta'lim jarayonini shunday tashkil etishi lozimki, o'quvchilar bu jarayonda faol ishtirok etsin. O'quvchilarning faolligi ularning mustaqilligi bilan uzviy bog'langan. Shu kabi tushunchalar bir- birini to`ldiradi, chunki mustaqil xarakatlarni o`zidayoq shaxsni faolligi namoyon bo`ladi, shu bilan birga faollik, chaqqonlik paydo bo`ladi, shu bilan birga faollik ko`pincha mustaqil xarakatlarni taqozo qiladi.

O`quvchilarning faolligini va mustaqilligini shakillantirish – o`qituvchi faoliyatining zarur vazifalaridan biri, chunki bu faqat ko`rsatkich bo`lib qolmay, balki samarali bilim olishning muxim omili hamdir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini shakllantirishda grafik tashuvchi (organayzer)lar aloxida ahamiyatga ega.

Grafik tashuvchilar o'quvchilar biror-bir mavzu yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'lgach, ushbu voqea yuzasidan mustaqil fikr yuritishlariga yordam beradi. Bundan tashqari, ular o'quvchilarning bilish mustaqilligi uchun eng zarur bo'lgan qiziqish, ehtiyoj, intilish kabi motivlarni paydo qiladi. Grafik tashuvchilarning eng foydali shakllariga «Kontseptual jadval». «T-chizma» va «Venn diagramma»larini kiritish mumkin.

Kontseptual jadval. Yozma ish oldidan materialni uyushtirishning yana bir usuli - kontseptual jadval. Uchta va undan ko'p jixatlar yoki savollarni taqqoslash taqazo etilganida ushbu usul ayniqsa foydali bo'ladi. Jadval quyidagicha tuziladi: vertikal bo'yicha taqqoslanadigan narsalar, gorizontal bo'yicha esa - ushbu taqqoslash bajariladigan xususiyat va xossalar joylashtiriladi,

[23] Sh Mirziyoyevning "Mamlakatimizda ta`lim –tarbiya tizimini takomillashtirish "Ilm –fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari bo`yicha videoselektor yig`ilishi" dagi nutqi 30 –oktabr 2020- yil

T-chizmalar. T-chizma munozara vaqtida qo’shaloq javoblar (ha-yo’q, tarafdor-qarshi) yoki taqqoslash zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer xisoblanadi. Masalan “Xorazmshoxning mudofaa rejasi” matnini “tarafdor va qarshi” tamoyiliga asoslanib o’qilganida bir juft o’quvchi quyida keltirilganidek T-chizmani tuzishi va besh daqiqdan keyin, chizmaning chap tomonida Xorazmshoxlar davlatining saqlab qolinishi uchun mumkin bo’lgan shuncha sabablarni yozishi mumkin. So’ngra besh minut mobaynida ular bu fikrga qarshi iloji boricha ko’p sababni keltirishlari kerak. Ana shu vaqt oxirida ular yana besh daqiqa mobaynida o’z T-chizmalarini boshqa juftlik chizmalari bilan taqqoslashlari mumkin.

Venn diagrammasi. Venn diagrammasi bir- biri kesishadigan ikki yoki undan ortiq doiralarda qo`llaniladi, ular o`rtasida yozish uchun yetarli joy qolishi darkor. U g’oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini ko’rsatib berishi kerak:. Masalan, o’quvchilar «Ruschilar urushi»dagi taboriylar bilan mu’tadillarning xarakatlarini taqqoslaydilar deylik. Venn diagrammasi bir-biriga yopishgan ikki doira bilan birga ushbu guruxlar o’rtasida zidlik o’tkazish, ayni paytda ularning umumiy unsurlarini ko’rsatish imkonini beradi.

O’qituvchi o’quvchilar juftligidan Venn diagrammasini tuzib, unda tegishlicha faqat taboriylar va mu’tadillarga ta`lluqli bo’lgan doiralarning ikki qisminigina to’ldirishni so’rashi mumkin. So’ngra juft boshqa juftlikka qo’shiladi va to’rt kishi o’z diogrammalarini taqqoslashlari, so’ngra o’rtasida ular ko’rganidek, ikkala gurux uchun umumiy bo’lgan xususiyatlar ruyxatini tuzishlari mumkin.

Ana shunday interfaol metodlardan biri “Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma- ketligi” metodidir. Masalan 6-sinfda o`qituvchi tarix darsida “Tosh davri yodgorliklari” xaritasiga o`quvchilar e`tiborini qaratar ekan, «Mantiqiy zanjirlar (bog`liqliklar) ketma- ketligi” metodidan shunday foydalanishi mumkin. Dastlab o`qituvchi sinf taxtasiga tosh davri yodgorliklarini betartib xolda yozib qo`yadi, so`ng ularni qaysi davrga oidligiga qarab xaritadan foydalanib, to’g’ri o’ringa qo’yib chiqishni so’raydi.

1. Jonbos-4
2. Xujakent
3. Bomi
4. Joytun
5. Qorabura
6. Zarafshon
7. Qayroqqum
8. Tuzkon
9. Teshiktosh
10. Qavat

O'quvchilar topshiriqni o'z daftarlarida bajarishib bo'lishgach, o'qituvchi tarixiy yodgorliklarni ketma-ketlikda yozib, ularning xar birini varoqda qayd etadi. Varoqlar aralashtiriladi va o'quvchilardan biridan ushlab turish so`raladi. O'quvchilarga navbat bilan chiqish va bir voqeani zanjirdagi tug'ri o'ringa qo'yish so'raladi. Hamma bir qadar yagona fikrga kelgach, o'qituvchi ularda o'zlarining taxminlari to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirish uchun matnni o'qish chog'ida voqealar tartibiga e'tiborni jamlashni so`raydi.

O`quvchilar berilgan xaritadan foydalanib, nafaqat aniq daliliy ma`lumotlar olishadi, balki o`rganilayotgan material chuqur tahlil etib, mustaqil fikrlarini ham bayon aks etirib bera oladilar. Ularga bu ishda "Besh minutlik esse" yozish qo`l kelishi tabiiy.

Yozma topshiriqni ushbu turi o`quvchilar xaritadan foydalangan xolda, mavzuga doir o`z mustaqil fikrlarini ifodalay olishga yordam berish va o`qituvchiga o`z o`quvchilari xaritani olib xarita bilan ishlaganda,qaysi jixatlariga e`tibor ko`proq berishlari xususida fikrlash imkonini beradi. Aniq qilib aytganda, o'quvchilardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish: mazkur mavzu bo`yicha ular xaritadan nimalarni o'rganganliklarini mustaqil bayon etish va ular baribir javobini ololmagan bitta savol berishni so'raladi.

Guvohi bo'lganimizdek, o'quvchilar xaritalar bilan ishlash orqali tarixiy materialni yuzaki o'zlashtirmay, uni eng kichik unsurlarigacha tadqiq etadi, mustaqil nuqtaiy nazardan yondashib, chuqur tahlil etadi, o'zining shaxsiy nuqtaiy nazarini bayon etadi. Eng muximi, shaxsiy nuqtaiy nazarlar o'quvchilarning faol mustaqil fikrlashlariga olib keladi.

Hikoyalarni qiyoslash

Jadvalga qancha ko'p hikoya kiritilsa, qiyoslash uchun shuncha ko'p imkoniyat tug'iladi.

Bir-biriga o'rgatish. Yaxshi ma'lumki, boshqalarga o'rgatganda o'zing hamma narsani osonroq o'rganasan. Bir-biriga o'rgatish usuli ana shundan kelib chiqqan, yuqorida bayon etilgan bir-biridan so'rash usuli singari u ham barcha o'quvchilarga o'qituvchining o'rnida bo'lish va boshqalarni hikoya matni ustida ishlashga yo'naltirish imkoniyatini berish maqsadida ishlab chiqilgan. Axboriy matn bilan ishlaganda, bu usulni qo'llash yaxshi natija beradi. Bir-biriga o'rgatish (Broun, 1984) to'rt-etti kishidan tarkib topgan guruhlarda o'tkaziladi. Ularning hammasiga bir tarixiy hikoya tarqatiladi. O`quvchilar navbat bilan o'qituvchi rolini - ulardan bitta muayyan xarakatni bajarishni talab etadigan rolni o'ynaydi. Guruhning barcha a'zolari xat boshini o'qib bo'lgach (ichlarida), «o'qituvchi» quyidagilarni amalga oshiradi:

1) xatboshining mazmunini yakunlaydi;
2) matn bo`yicha savol o'laydi va boshqa o'quvchilardan unga javob

berishni so`raydi;

3) boshqalarga ravshan bo'lmagan joylarni ochib beradi;

4) keyingi xatboshining extimoliy mazmunini bashorat qiladi;

5) keyingi xatboshini o'qish topshirig'ini beradi.

Masalan, o'qituvchi va besh o'quvchi «Amerikaning kashf e tilishi» (5- sinf, «Tarixdan hikoyalar») matnini o'qimoqda deb faraz qilaylik,, Dars quyidagicha o'tadi.

Dastlab o'qituvchi birinchi xatboshi bo'yicha munozaraning raxbari

ekanligini ma'lum qiladi. O'quvchilar nafaqat xatboshiga e'tibor berib, munozarada ishtirok etib qolmay, balki o'qituvchi munozarani qanday olib borayotganini ham diqqat bilan kuzatib borishlari lozim. Chunki ularning har biri keyingi xatboshilar o'qilganda munozara raxbari rolini bajaradi. O'qituvchi har bir xatboshi o'qilganidan keyin qo'yiladigan besh qadamni o'z ichiga olgan chizmani tayyorlaydi. U o'quvchilardan o'zi munozarani o'tkazishga qarab qo'llaydigan rusum-qoidalarni kuzata olishlari uchun chizmadan foydalanishni iltimos qiladi. Yuqorida kursatilgan besh qadamga asoslanib munozarani davom ettiradi.

Uchinchi xatboshini o'qishni boshlashdan oldin o'qituvchi tomonda o'tirgan o'quvchini tanlab, munozarani o'tkazishni suraydi. O'quvchi topshiriqni uddalagach, munozaraga raxbarlik qilish galdagi keyingi o'quvchiga o'tadi va hokozo.

«Xaritalar va sanalar». O'yinni o'tkazish texnologiyasi yuqorida ko'rib o'tganlarimiz singari bo'lib, sanasiz tarixiy xaritadan foydalanish mumkin. O'yin ishtirokchilariga sanalar yozilgan xaritalar topshiriladi. Vazifa: sana geografik nom bilan to'g'ri kelishini ta'minlash. O'yin ishtirokchisi sana bilan geografik nomning o'zaro bog'liqligi nimadaligini tushuntirib berishi zarur.

«Ular qayerda yashashgan?». O'yin komanda-musobaqa tavsifiga ega bo'lishi mumkin. Doskaga xarita (imkoni boricha geografik, maxsus kursatkichlarsiz) yopishtiriladi. O'yin ishtirokchilariga qabila yoki joy nomi yozilgan qog'ozchalar solingan savatcha taqdim etiladi. O'yin ishtirokchisi savatchadan qog'ozchani diqqat bilan oladi va qog'ozda yozilgan qabila nomini mazkur qabila istiqomat qilgan joyga yopishtiradi. O'yin ko'p marta o'tkazgandan so'ng, mazkur vazifa odatiyga aylanib qolsa, tez joylashtira olish bo'yicha musobaqa o'tkazilishi mumkin. Shuning uchun imkoni boricha xarita doimiy ravishda xonada osig'liq turishi lozim. Tajribalarimiz shuni ko'rsatadiki, bunday o'yinlar O'zbekistonning geografik xaritasini o'rganishga qiziqishni rag'batlaydi. Ikkinchidan, xarita bilan muntazam ishlash natijasida o'quvchida hudud, xalqlar, qabilalarning joylashuv o'rnini eslab qolish va xotirani mashq qildirish asosida ularning shart-sharoiti, yashash tarzi, mashg'ulotlari haqida mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari shakllanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, hozirgi paytda ham nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega, o‘zgarishlarga moslanuvchan, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil hal qila oladigan mutaxassislarga, kadrlarga ehtiyoj katta. Shu bilan birga, bugungi davr yoshlardan har tomonlama bilimdonlik, mustaqil fikrlay oladigan, tashkilotchilik qobiliyatiga ega shaxs darajasini talab etadi. Bunday talablarning bajarilishi albatta ularni butun hayoti davomida bilim olishga o‘rgatish orqali ta’minlanadi. Ta’lim oluvchilarni faollashtirish ularning mustaqil ishlash va o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi**.** Ta`lim jarayonida o`quvchilarning faolligi va mustaqilligini shakillantirishda grafik organayzerlarning o`rni hozirgi kunda beqiyos**.** Mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi muammoni yechimi sifatida o‘qitishni innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida olib borish, ta’limga yangicha munosabatda bo‘lish, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘rgatish zarur. Bu borada maktab ta’limida quyidagi metodik ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. - bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar negizida ta’lim oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun o‘qitish jarayoni shunday tashkil etish kerakki, bunda o‘quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo‘llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o‘quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq texnikasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’minlashga e’tibor qaratish; - novator o‘qituvchilarning ishlarini ommalashtirish, tajriba almashish ishlarini yo‘lga qo‘yiishlab chiqish; - bugungi kunda raqamli iqtisodiyot davrida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini fanlar kesimida metodik ta’minotini yaratish - ta’lim olish jarayonida mavzuga oid mustaqil topshiriqlarni tashkillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh Mirziyoyevning “Mamlakatimizda ta`lim –tarbiya tizimini takomillashtirish “Ilm – fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari bo`yicha videoselektor yig`ilishi” dagi nutqi 30 –oktabr 2020- yil.
2. G‘afforova T. Mustaqil fikrlashga o‘rgatish bugungi kunda ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 2012 y. 9 –son
3. Z.I. Nishonova Yosh davrlar psixologiyasi. Moliyachi. 2015.
4. D.Z.Tursunova Mustaqil tafakkurni shakillantirish muhim pedagogik muammo sifatida. Nodavlat Notijorat Tashkilotlari Faoliyatini Tashkil etish va Samarali Boshqarish: Nazariya va Amaliyot Xalqaro onlayn ilmiy –amaliy anjuman Andijon -2022yil 29-noyabr
5. https//www.lex.uz
6. www.google.uz
7. http//library.ziyonet.uz